


## 2020-yil 1-yanvar holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot<sup>\*)</sup>

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*


Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirdorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirdorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

### Korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2020-yilning 1-yanvar holatiga ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 24 544 taga yetib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28,5 % ga o'sdi.



## Jami ro'yxatdan o'tgan tadbirdorlik subyektlarining tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan  
korxonalar va tashkilotlar**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlik		01.12.2019 yil	
	01.01.2019 yil	01.01.2020 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Jami</b>	<b>19 093</b>	<b>24 544</b>	<b>128,5</b>	<b>100,0</b>

*shundan:*


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 023	2 427	119,9	9,9
Sanoat	2 754	3 758	136,5	15,3
Qurilish	2 013	2 590	128,6	10,6
Savdo	4 087	6 020	147,3	24,5
Tashish va saqlash	1 215	1 396	114,9	5,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 271	1 940	152,6	7,9
Axborot va aloqa	220	251	114,1	1
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	503	580	115,3	2,4
Boshqa turlari	5 007	5 582	111,5	22,7

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar**

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)


2020-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko`rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 23 459 tani tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5 344 taga (29,5 %) o`sgan.

**Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning  
2020-yil 1-yanvar holatiga yillar kesimida soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ko`radigan bo`lsak, asosan sanoat (3 588 ta yoki 15,3 %), savdo (5 722 ta yoki 24,4 %), qurilish (2 462 ta yoki 10,5 %), qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi (2 275 ta yoki 9,7 %), yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar (1 845 ta yoki 7,9 %) faoliyat turlari hissasiga to`g`ri keladi. Eng kamlari esa sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatishda (572 ta yoki 2,4 %), axborot va aloqa (240 ta yoki 1,0 %) hamda tashish va saqlashda (1 340 ta yoki 5,7 %) tashkil etgan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar**  
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*



**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat  
ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**


2020-yil 1-yanvar holatiga 20 116 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 3 507 ta, oilaviy korxonalar – 1 836 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar – 14 429 ta va boshqalar 344 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat  
ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar***(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*

2019-yil yanvar-dekabr oylarida 6 371 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo`lib, bu ko`rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,9 martaga ko`pdir.


**Yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar  
va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda***(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko`rsak, eng ko`pi sanoat hamda savdo va yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar sohasiga hamda eng kamlari esa sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissalariga to`g`ri keladi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabrdekkabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020 y.




- Savdo
- Sanoat
- Boshqa turlari
- Qurilish
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tashish va saqlash
- Axborot va aloqa
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


2019 y.




**Jami yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning  
tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi  
korxonalari va tashkilotlari jamiga nisbatan ulushi**




## Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari va tashkilotlari soni bo'yicha ma'lumotlar, birlikda




## Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

01.01.2019yil


01.01.2020yil




**Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, birlikda  
(2020-yil 1-yanvar holatiga)**




**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda  
(2020-yil 1-yanvar holatiga)**




**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda  
(2020-yil 1-yanvar holatiga)**



**Oilaviy korxonalar soni, birlikda  
(1-yanvar holatiga)**



**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot  
(2020-yil 1-yanvar holatiga)**



### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Ro`yxatdan o`tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yilning 1-yanvar holatiga 15 034 tani tashkil etib, ulardan 14 429 tasi yoki 96,0% faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o`tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 597 taga yoki 35,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yilning yanvar-dekabr oylarida Respublikamizda 4 550 taga yaqin mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o`tgan yilning shu davriga nisbatan 2 173 taga ko'pdir.

### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

	01.01.2020 yil		2019-yil yanvar-dekabr oylarida
	Ro`yxatdan o`tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
<b>Jami</b>	<b>15 034</b>	<b>14 429</b>	<b>4 550</b>
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 969	1 865	455
Sanoat	2 549	2 450	827
Qurilish	2 153	2 048	574
Savdo	4 110	3 934	1 611
Tashish va saqlash	1 220	1 182	248
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	923	877	359
Axborot va aloqa	167	161	40
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	337	333	65
Boshqa turlari	1 626	1 579	371


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 19 981 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 5 689 mingtasi (28,5 %) - savdo, 3 552 tasi (17,8 %) - sanoat, 2 444 tasi (12,2 %) - qurilish, 2 228 tasi (11,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 226 tasi (1,1 %) – axborot va aloqa sohasi, 491 tasi (2,5 %) - sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1 330 tasi (6,7 %) - tashish va saqlash hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Savdo



Sanoat



Qurilish



Qishloq, o'rmon  
va baliq xo'jaligi



Yashash va  
ovqatlanish  
bo'yicha xizmatlar



Tashish va saqlash



Axborot  
va aloqa




Sog'lijni saqlash va  
ijtimoiy xizmatlar  
ko'rsatish




Boshqa turlar

**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxona va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko'pi savdoda (2 181 ta), sanoatda (1 234 ta), qurilishda (611 ta) va qishloq, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (703 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (81 ta), axborot va aloqada (54 ta) hamda tashish va saqlashda (269 ta) tashkil etilgan.


## 2019-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 274 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 118 taga yoki 75,6 % ga o'sgan.


## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarining soni, birlikda




## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda**




**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, %**




2019-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 32,8 % yoki 38 tasi sanoat, 31,9 % yoki 37 tasi savdo, 6,0 % yoki 7 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 7,8 % yoki 9 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 14,7 % yoki 17 tasi qurilish, 3,4 % yoki 4 tasi tashish va saqlash, 1,7 % yoki 2 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 1,7 % yoki 2 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida  
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 20 ta, Turkiya Respublikasi - 12 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 12 ta, Turkmaniston Respublikasi - 31 ta va Koreya Respublikasi - 6 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




**O'zbekiston Respublikasida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda**

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
<b>Jami</b>	<b>274</b>	<b>158</b>	<b>116</b>
Rossiya Federatsiyasi	53	34	19
Xitoy Xalq Respublikasi	30	18	12
Koreya Respublikasi	20	11	9
Turkiya Respublikasi	33	23	10
Eron Respublikasi	13	8	5
Turkmaniston Respublikasi	38	15	23
Germaniya Respublikasi	4	3	1
Hindiston Respublikasi	8	3	5
Amerika Respublikasi	11	7	4
Boshqa	64	36	28

O'zbekiston Respublikasida MDH davlatlarining kapitali ishtirokidagi korxonalarning asosiy ulushi (*jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan*) Rossiya Federatsiyasi 19,3 %, Xitoy Respublikasi 10,9 %, Koreya Respublikasi 7,3 %, Turkiya Respublikasi 12,0 % va Turkmaniston Respublikalarida 13,9 % ga to'g'ri kelmoqda.


## Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital

### ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Buxoro shahri (145 ta), Kogon tumani (20 ta), Peshku tumani (17 ta), Kogon shahar (15 ta) va Jondor tumani (12 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Olot tumani (6 ta), Vobkent tumani (7 ta) da korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Buxoro shahri (1 880 ta), G'ijduvon (698 ta), Romitan (642 ta), Buxoro (446 ta), Jondor (432 ta), Peshku (386 ta), Shofirkon (355 ta), Qorako'l (307 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qorovulbozor (150 ta), Olot (211 ta), Vobkent (267 ta), Kogon (294 ta) tumanlari hamda Kogon shahrida (303 ta) korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**Hududlar kesimida oilalar va faoliyat ko‘rsatayotgan  
tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*


	Oilalar Soni <sup>*)</sup>	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.01.2019 yil	01.01.2020 yil
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>512 987</b>	<b>14 805</b>	<b>19 981</b>
Olot	26 322	385	523
Buxoro t.	41 422	1 090	1 499
Vobkent	36 097	607	837
G’ijduvon	79 886	1 533	2 070
Kogon t.	20 712	780	1 049
Qorako’l	41 919	681	947
Qorovulbozor	5 322	257	390
Peshku	33 176	888	1 154
Romitan	34 895	1 184	1 710
Jondor	45 425	974	1 294
Shofirkon	44 721	826	1 098
Buxoro sh.	87 175	5 091	6 603
Kogon sh.	15 915	509	807

\*) 2020 yil 1 yanvar holatiga tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha kengashlari ma’lumotlari asosida jamlangan.

**Hududlar kesimida har 1000 oilaga to'g'ri keladigan  
tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda



### Kichik korxona va mikrofirmalar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020yil 1-yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 19 981 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2019-yil 1-yanvar holatiga qaraganda 35,0 % ga oshgan.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona  
va mikrofirmalar soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*


	Kichik korxona va mikrofirmalar soni	shundan:	
		Kichik korxona	Mikrofirmalar
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>19 981</b>	<b>1 060</b>	<b>18 921</b>
Olot	523	29	494
Buxoro t.	1 499	83	1416
Vobkent	837	60	777
G'ijduvon	2 070	115	1 955
Kogon t.	1 049	63	986
Qorako'l	947	50	897
Qorovulbozor	390	11	379
Peshku	1 154	27	1 127
Romitan	1 710	60	1 650
Jondor	1 294	54	1 240
Shofirkon	1 098	32	1 066
Buxoro sh.	6 603	432	6 171
Kogon sh.	807	44	763

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 6 603 tasi (33,0 %) Buxoro shahri, 2 070 tasi (10,4 %) Gijduvon, 1 710 tasi (8,6 %) Romitan hamda 1 499 tasi (7,5 %) Buxoro tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning  
hududlar kesimida soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi Buxoro shahar (1 800 ta), G'ijduvon tumani (685 ta), Romitan tumani (625 ta), Buxoro tumani (435 ta), Jondor tumani (421 ta), Peshku tumani (371 ta), Shofirkon tumani (336 ta), Kogon shahar (301 ta) va Qorako'l tumani (283 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qorovulbozor tumani (146 ta), Olot tumani (206 ta), Vobkent tumani (262 ta) va Kogon tumanida (283 ta) korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.


### **Oilaviy korxonalar soni**

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-yanvar holatiga 1927 tani tashkil etib, ulardan 1836 tasi yoki 95,3 % faoliyat ko`rsatadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yxatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiyligi soni o`rtacha 93,7 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### **Oilaviy korxonalarning soni to'g'risida ma'lumot, birlikda**


	01.01.2020 y.		2019 yil yanvar-dekabr
	Ro`yxatdan o'tgan	Faoliyat ko`rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1927</b>	<b>1836</b>	<b>967</b>
Olot	66	62	40
Buxoro t.	116	107	55
Vobkent	123	115	72
G'ijduvon	302	273	156
Kogon t.	82	80	47
Qorako'l	134	132	80
Qorovulbozor	25	25	10
Peshku	111	105	64
Romitan	98	97	51
Jondor	64	64	47
Shofirkon	141	128	83
Buxoro sh.	559	542	178
Kogon sh.	106	106	84

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning soni 11 939 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 martaga ko'paygan.

## 2019-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>274</b>	<b>158</b>	<b>116</b>
Olot	6	1	5
Buxoro t.	10	8	2
Vobkent	7	6	1
G'ijduvon	9	6	3
Kogon t.	20	18	2
Qorako'l	8	3	5
Qorovulbozor	8	5	3
Peshku	17	7	10
Romitan	9	4	5
Jondor	12	8	4
Shofirkon	8	7	1
Buxoro sh.	145	74	71
Kogon sh.	15	11	4

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnomaga tusidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Faoliyat ko'rsatmayotgan korxona va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiiy saytida real vaqt rejimida, so'r alayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**Tel.:65-223-83-20 (21)**